



Adabiy ta'limda badiiy matnni ko'p bosqichli tahlil qilish metodikasini takomillashtirish

Abdujabborova Nilufar Rustamjon qizi –

Namangan davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

E-mail: abdujabborovanilufar1214@gmail.com

Tel: +998 95 243-03-98

Annotatsiya. Mazkur maqolada adabiy ta'lim jarayonida badiiy matnni ko'p bosqichli tahlil qilish metodikasini takomillashtirish masalasi yoritiladi. Tadqiqotning maqsadi - o'quvchilarning badiiy asarni chuqur anglash, mustaqil tahlil qilish va estetik munosabat bildirish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi bosqichma-bosqich yondashuvni asoslashdan iborat. Ishda nazariy tahlil, qiyosiy-taqqoslash va pedagogik kuzatuv usullaridan foydalanildi. Natijada badiiy matnni o'rganishning besh bosqichli modeli ishlab chiqildi: idrok etish, mazmuniy-syujetli tahlil, badiiy-estetik tahlil, g'oyaviy-tematik interpretatsiya va ijodiy-baholash. Taklif etilgan metodika o'quvchilarning yosh xususiyatlariga moslashtirilishi mumkinligi va adabiy ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi ko'rsatib berildi.

Kalit so'zlar: badiiy matn, ko'p bosqichli tahlil, adabiy ta'lim, metodika, idrok etish, interpretatsiya, adabiy tahlil malakasi, estetik tarbiya, o'quv tahlili, badiiy asar.

Совершенствование методики многоступенчатого анализа художественного текста в литературном образовании

Аннотация. В статье рассматривается совершенствование методики многоступенчатого анализа художественного текста в литературном образовании. Цель исследования – обоснование поэтапного подхода, способствующего развитию у учащихся умений глубокого осмысления литературного произведения, самостоятельного анализа и выражения эстетического отношения. В работе использованы методы теоретического анализа, сравнительного сопоставления и педагогического наблюдения. В результате разработана пятиступенчатая модель изучения художественного текста: восприятие, содержательно-сюжетный анализ, художественно-эстетический анализ, идейно-тематическая интерпретация и творчески-оценочный этап. Показано, что предлагаемая методика может быть адаптирована к возрастным особенностям учащихся и способствует повышению эффективности литературного образования.

Ключевые слова: художественный текст, многоступенчатый анализ, литературное образование, методика, восприятие, интерпретация, навык литературного анализа, эстетическое воспитание, учебный анализ, художественное произведение.

Improving the methodology of multi-stage analysis of literary texts in literary education

Annotation. *The article examines the improvement of the methodology for multi-stage analysis of literary texts in literary education. The aim of the study is to substantiate a step-by-step approach that develops students' skills in deep comprehension of a literary work, independent analysis and expression of aesthetic attitude. The research employs methods of theoretical analysis, comparative comparison and pedagogical observation. As a result, a five-stage model of studying a literary text has been developed: perception, content-plot analysis, artistic-aesthetic analysis, ideological-thematic interpretation and creative-evaluative stage. It is shown that the proposed methodology can be adapted to the age characteristics of students and contributes to increasing the effectiveness of literary education.*

Keywords: *literary text, multi-stage analysis, literary education, methodology, perception, interpretation, literary analysis skill, aesthetic education, educational analysis, literary work.*

KIRISH

Adabiy ta'limning asosiy maqsadlaridan biri o'quvchilarni badiiy asarni chuqur anglashga, uning estetik va ma'naviy qatlamlarini ochishga o'rgatishdir. Ammo amaliyotda ko'pincha asar tahlili yuzaki olib boriladi. Syujet qayta hikoya qilinadi, qahramonlarga umumiy tavsif beriladi, g'oya qisqacha aytiladi va shu bilan cheklanadi. Bunday yondashuv o'quvchida mustaqil tahlil malakasini shakllantirmaydi, aksincha, uni passiv tinglovchiga aylantiradi. Shu bois badiiy matnni ko'p bosqichli tahlil qilish metodikasini takomillashtirish dolzarb pedagogik muammo sifatida ko'rilmogda. Ko'p bosqichli tahlil deganda asarni birdaniga emas, balki izchil, bir-birini to'ldiruvchi bosqichlar orqali o'rganish tushuniladi. Har bir bosqich o'quvchining idrokini, tafakkurini va estetik his-tuyg'usini bosqichma-bosqich rivojlantiradi. Professor Q. Yo'ldoshev ta'kidlaganidek, badiiy tahlil adabiy asarning muallif ko'zda tutgan badiiy va hayotiy mantig'ini, estetik jozibasini anglashga yo'naltirilgan ilmiy faoliyatdir. Tahlil faqat syujetni qayta hikoya qilish emas, balki asarning ichki mantiqini, shakl va mazmun birligini ochish jarayonidir [1; 12-5-b.].

Hozirgi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning funksional savodxonligi, tanqidni tafakkuri va mustaqil bilim olish qobiliyatini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Adabiyot darsi esa bu vazifalarni amalga oshirishning eng qulay maydonlaridan biridir. Chunki badiiy asar o'quvchiga nafaqat axborot, balki estetik, emotsional va ma'naviy ta'sir ko'rsatadi. U tilning leksik, grammatik, uslubiy, madaniy va falsafiy qatlamlarini ochib beradi. Ammo bu imkoniyatlardan to'liq foydalanish uchun tahlil jarayoni tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etilishi lozim. An'anaviy darsda ko'pincha o'qituvchi asosiy ishni o'zi bajaradi: syujetni so'zlab beradi, qahramonlarni tavsiflaydi, g'oyani aytib o'tadi. O'quvchi esa passiv tinglovchi rolida qoladi. Natijada u mustaqil tahlil qilish malakasiga ega bo'lmaydi. Ko'p bosqichli tahlil metodikasi esa o'quvchini faol ishtirokchiga aylantiradi. Har bir bosqichda u o'ylaydi, savol beradi, javob izlaydi, o'z fikrini asoslaydi. Shu orqali tahlil malakasi bosqichma-bosqich shakllanadi.

Tadqiqotning maqsadi - adabiy ta'limda badiiy matnni ko'p bosqichli tahlil qilish metodikasini nazariy jihatdan asoslash va uni amaliyotga tatbiq etish yo'llarini ko'rsatishdan

iborat. Vazifalar sifatida quyidagilar belgilangan: mavzuning dolzarbligini ochib berish; mavjud ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish; tahlil bosqichlarini tizimlashtirish; ularning pedagogik ahamiyatini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'ekti - adabiy ta'lim jarayonida badiiy matn bilan ishlash, predmeti esa badiiy matnni ko'p bosqichli tahlil qilish metodikasidir. Ilmiy yangilik shundaki, unda o'quv tahlili bosqichlari yagona tizim sifatida taqdim etiladi va o'quvchining yosh xususiyatlariga moslashtirish imkoniyatlari ochib beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Badiiy asar tahlili masalasi o'zbek adabiyotshunosligi va metodikasida uzoq yillardan buyon o'rganib kelinmoqda. Professor Q.Yo'ldoshev "Badiiy tahlil asoslari" asarida tahlilning ilmiy asoslarini, turlari, yo'nalishlari va tamoyillarini batafsil yoritgan. U tahlilni adabiy asarning muallif niyatini, estetik jozibasini anglashga yo'naltirilgan faoliyat deb ta'riflaydi. Yo'ldoshevning fikricha, tahlil jarayonida shakl va mazmun, obyekt va subyekt munosabatlari yangicha o'rin egallaydi. Asarni tekshirishda yozuvchi, o'quvchi va adabiyotshunosning dunyoqarashi hamda milliy mansubligi ko'zda tutilishi lozim [1; 45-52-b.]. M.Mirqosimova o'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirishning bosqichma-bosqich xususiyatini ta'kidlaydi. Uning tadqiqotlariga ko'ra, tahlil malakasi birdaniga paydo bo'lmaydi, balki o'qituvchi tomonidan tizimli yo'naltirilgan ish natijasida rivojlanadi. O'quvchi avval matnning syujeti va qahramonlari bilan tanishadi, keyin badiiy vositalarni, g'oyaviy mazmunni ochishga o'tadi va nihoyat mustaqil xulosa chiqaradi. Bu jarayon o'qish kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi [2; 38-45-b.]. Q.Yo'ldoshevning tadqiqotlarida badiiy tahlilning genetik, tipologik, funktsional va boshqa yo'nalishlari ham yoritilgan. U tahlil jarayonida milliy mentalitet, tarixiylik tamoyili, shakl va mazmun birligi kabi masalalarga alohida e'tibor qaratadi. Olimning fikricha, o'quv tahlili ilmiy tahlildan farq qiladi, chunki unda o'quvchining yosh xususiyatlari, bilish darajasi va dastur talablari hisobga olinadi. Shu bois o'quv tahlilida didaktik maqsad ustuvor ahamiyat kasb etadi [1; 95-110-b.]. Mirqosimovanning monografiyasida adabiy tahlil malakasini shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari ham ochib berilgan. U o'quvchining matn bilan ishlashda bosqichma-bosqich rivojlanishini kuzatib, har bir bosqich uchun mos topshiriqlar tizimini taklif etadi. Bu yondashuv ko'p bosqichli tahlil metodikasining amaliy asosi sifatida xizmat qilishi mumkin [2; 70-85-b.]. B.To'xliyev adabiyot darsida matn bilan ishlashning turli usullarini ko'rsatib, o'quvchining mustaqil tahlil qilishini muhim pedagogik vazifa sifatida qo'yadi. Uning ishlarida badiiy asarlarni sharhlab o'rganishning tarixiy tajribasi, amaliyoti va zamonaviy texnologiyalariga keng o'rin ajratilgan. Q. Husanboyeva va R. Niyozmetova ham adabiyot o'qitish metodikasida o'quvchining faol ishtiroki, o'z fikrini asoslash va boshqalarning nuqtai nazarini tinglash ko'nikmalariga alohida e'tibor beradilar [3; 4]. Safo Matjonovning "Kitob o'qishni bilasizmi?" asarida ta'kidlanishicha, badiiy asarni o'qishning o'zi hali hech narsani anglatmaydi. Eng muhimi – o'qiganni qanday tushunishdir. Kitobxonlik o'qilgan kitoblar soni bilan emas, balki maqsadli, tushunib o'qish bilan belgilanadi. Badiiy asarni o'qiganda o'quvchidagi loqaydlik faol munosabatga almashinadi: u ruhlanadi, g'azablanadi, iztirob chekadi, chunki asar qalb dardi tufayli yaratilgan [5; 26-b.] Bu qarash ko'p bosqichli tahlil metodikasining nazariy asosi sifatida xizmat qiladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda badiiy matn tahlili ba'zan semantik, lingvo-poetik va konseptual bosqichlarga ajratiladi. Ba'zi ishlarda Blum taksonomiyasi asosida bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, sintez va baholash bosqichlari adabiyot darsiga moslashtirilgan. Shuningdek, matn bilan ishlashda "o'qishdan oldin – o'qish paytida – o'qishdan keyin" tizimi ham keng qo'llanilmoqda. Bu yondashuvlarning barchasi ko'p bosqichli tahlil g'oyasini qo'llab-quvvatlaydi, ammo ularni yagona, o'quvchining yoshiga mos tizimga solish hali to'liq amalga oshirilmagan. Ishda nazariy tahlil, qiyosiy-taqqoslash, pedagogik kuzatuv va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Avvalo, badiiy tahlilga oid mahalliy olimlarning asarlari o'rganildi. So'ngra adabiyot darslarida qo'llanilayotgan tahlil usullari

tizimlashtirildi. Metodikaning amaliy tomoni sifatida badiiy matnni o'rganishning besh bosqichli modeli ishlab chiqildi. Bu model o'quvchining idrok etishidan tortib ijodiy munosabat bildirishgacha bo'lgan jarayonni qamrab oladi. Metodika o'quvchining yosh xususiyatlari, matnning murakkabligi va dars maqsadiga qarab moslashtirilishi mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Badiiy matnni ko'p bosqichli tahlil qilish metodikasi quyidagi izchil bosqichlardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Har bir bosqich o'z oldiga aniq maqsad qo'yadi va keyingi bosqichga zamin yaratadi. Birinchi bosqich – idrok etish va dastlabki tanishuv. Bu bosqichda o'quvchi asarni o'qiydi yoki tinglaydi, umumiy taassurot hosil qiladi. Muallif, janr, yaratilish davri haqida qisqa ma'lumot beriladi. Notanish so'zlar izohlanadi yoki o'quvchilar o'zlari izlab topishga undaladi. O'quvchidan “Asar sizda qanday taassurot qoldirdi?”, “Qaysi qahramon ko'proq qiziqitirdi?”, “Qaysi epizod esda qoldi?” kabi savollar so'raladi. Bu bosqich empatik munosabatni shakllantiradi va keyingi tahlilga zamin yaratadi. Yo'ldoshev ta'kidlaganidek, badiiy asar bilan tanishishning dastlabki bosqichi o'quvchining hissiyotlarini uyg'otishi, uni asar olamiga “kirishga” tayyorlashi lozim [1; 78–82-b.].

Ikkinchi bosqich – mazmuniy-syujetli tahlil. Bu yerda voqealar ketma-ketligi, konflikt, kulminatsiya, yechim aniqlanadi. Qahramonlarning xatti-harakatlari, ularning o'zaro munosabatlari tahlil qilinadi. O'quvchi asosiy va yordamchi obrazlarni ajratadi, ularning xarakteridagi o'zgarishlarni kuzatadi. “Nima uchun qahramon shunday qaror qabul qildi?”, “Voqealar qanday rivojlandi?” kabi savollar mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. Mirqosimova ta'kidlaganidek, bu bosqichda o'quvchi matnning tashqi qatlamini o'zlashtiradi va keyingi chuqur tahlilga tayyorlanadi [2; 56–60-b.].

Uchinchi bosqich – badiiy-estetik tahlil. Matndagi tasviriy vositalar – epitet, metafora, qiyoslash, mubolag'a, takror, alliteratsiya va boshqalar aniqlanadi. Kompozitsiya, uslub, til xususiyatlari o'rganiladi. O'quvchi “Muallif nima uchun aynan shu so'zni tanlagan?”, “Bu tasvir qahramon holatini qanday ochadi?”, “Qanday badiiy vosita asarning ta'sirini kuchaytiradi?” kabi savollarga javob izlaydi. Bu bosqich estetik sezgirlikni oshiradi va o'quvchini “so'z san'ati”ni his etishga o'rgatadi. Badiiy tahlilning mohiyati aynan shu yerda yaqqol namoyon bo'ladi, chunki asarning jozibasi uning shakliy xususiyatlarida yotadi [1; 120–135-b.].

To'rtinchi bosqich – g'oyaviy-tematik tahlil va interpretatsiya. Asarning asosiy g'oyasi, muallif pozitsiyasi, qo'yilgan muammolar ochiladi. O'quvchi asarni o'z hayoti, jamiyat voqealari bilan bog'laydi, shaxsiy munosabat bildiradi. Bu yerda turli talqinlar muhokama qilinadi, munozara tashkil etiladi. “Muallif nima demoqchi?”, “Asar sizning hayotingizga qanday taalluqli?”, “Qahramonning tanlovi sizni nima o'ylashga undaydi?” kabi savollar tanqidiy va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. Safo Matjonov ta'kidlaganidek, aynan shu bosqichda o'qish faol, ongli, emotsional va tanqidiy jarayonga aylanadi [5].

Beshinchi bosqich – ijodiy-baholash bosqichi. O'quvchi o'z xulosasini yozma yoki og'zaki shaklda ifodalaydi. Esse, insho, qahramon nomidan xat, muqobil yakun yozish, rasm chizish yoki sahnalashtirish kabi topshiriqlar beriladi. Bu bosqich olingan bilimlarni mustahkamlaydi va ijodiy tafakkurni rivojlantiradi. O'quvchi endi nafaqat tahlil qiladi, balki o'z ijodiy mahsulotini yaratadi. Bu esa adabiy ta'limning eng yuqori maqsadlaridan biriga – ijodiy shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Har bir bosqichda interaktiv metodlardan foydalanish samarani oshiradi. Klaster metodi asosiy g'oyalarni bog'lashga, “Insert” metodi o'qish jarayonida shaxsiy munosabatni belgilashga, Venn diagrammasi qahramonlarni qiyoslashga, munozara esa turli nuqtai nazarlarni tinglashga yordam beradi. O'qituvchi bu jarayonda yo'naltiruvchi rolni o'ynaydi, lekin o'z fikrini majburan yuklamaydi. Faqat shunda o'qish kompetensiyasi chinakam rivojlanadi.

Pedagogik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, bosqichma-bosqich tahlil qo'llanilgan darslarda o'quvchilarning matnni chuqurroq tushunishi, mustaqil fikr bildirishi va estetik

munosabat bildirishi sezilarli darajada oshadi. Ular asarni faqat “o‘qib chiqish” emas, balki “suhbatlashish” obyektini sifatida qabul qila boshlaydilar. Bu esa adabiy ta'limning asosiy maqsadlaridan biriga erishish demakdir. Ko'p bosqichli tahlilning yana bir afzalligi shundaki, u differensial yondashuvni osonlashtiradi. Zaifroq o'quvchilar birinchi va ikkinchi bosqichlarda faol ishtirok etib, asosiy mazmunni o'zlashtiradi. Kuchliroq o'quvchilar esa uchinchi, to'rtinchi va beshinchi bosqichlarda chuqurroq tahlil va ijodiy ishlarga jalb etiladi. Shu orqali har bir o'quvchi o'z imkoniyati doirasida rivojlanadi. Amaliyotda o'qituvchi matnni tanlashda ham ehtiyotkor bo'lishi kerak. Matn o'quvchilarning yoshiga, qiziqishiga va til tayyorgarligiga mos bo'lishi, ayni paytda ularni yangi g'oyalar va his-tuyg'ular bilan tanishtirishi lozim. Juda oddiy matn qiziqish uyg'otmasa, haddan tashqari murakkab matn esa tushunmovchilikka olib kelishi mumkin. Shu bois dars oldidan matn diqqat bilan o'rganilib, har bir bosqich uchun savol va topshiriqlar oldindan rejalashtirilishi muhim.

Baholash jarayonida ham bosqichli yondashuv qo'llanilishi mumkin. O'qituvchi nafaqat yakuniy xulosani, balki o'quvchining har bir bosqichdagi ishtirokini, savollarga javob berishini, munozaradagi faolligini kuzatadi. Bu jarayonda o'quvchini rag'batlantirish, uning har bir to'g'ri mulohazasini e'tirof etish muhim rol o'ynaydi. Natijada o'quvchi tahlil qilishdan qo'rqmaydigan, o'z fikrini erkin bildiradigan shaxsga aylanadi. Shuningdek, ko'p bosqichli tahlil fanlararo bog'liqlikni ham ta'minlaydi. Tarixiy kontekst, geografik joylashuv, san'at, musiqa bilan bog'lanishlar berilsa, o'quvchi asarni yanada teranroq anglaydi. Masalan, tarixiy roman tahlilida davr muhiti, urf-odatlar haqida qisqa ma'lumot berish o'quvchining tasavvurini boyitadi. Bu esa integrativ yondashuvning amaliy ifodasi hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan metodik yondashuvlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Ularning samarasi o'qituvchining mahorati, o'quvchilarning faolligi va darsning tashkil etilishiga bog'liq. Agar bu elementlar uyg'unlashsa, badiiy matn orqali o'qish kompetensiyasini rivojlantirish sezilarli natija beradi. O'quvchilar matnni chuqurroq tushunish, undan zavq olish va o'z fikrlarini erkin ifodalash ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Badiiy asarni ko'p bosqichli tahlil qilishda o'qituvchining roli o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. U darsni rejalashtirishda har bir bosqich uchun aniq maqsad va vazifalarni belgilaydi, savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqadi. Shu bilan birga, o'qituvchi o'z fikrini majburan yuklamasligi, aksincha, o'quvchilarni mustaqil xulosa chiqarishga undashi lozim. Faqat shunda o'quvchi chinakam tahlilchi sifatida shakllanadi. Amaliyotda ko'p bosqichli tahlilni tashkil etishda vaqt omili ham hisobga olinishi kerak. Bir darsda barcha besh bosqichni to'liq o'tkazish har doim ham mumkin emas. Shu bois o'qituvchi asarning hajmi va murakkabligiga qarab bosqichlarni bir necha darsga taqsimlashi mumkin. Masalan, birinchi darsda idrok etish va mazmuniy tahlil, keyingi darsda badiiy-estetik va g'oyaviy tahlil, uchinchi darsda ijodiy ishlar o'tkazilishi mumkin. Bu yondashuv o'quvchilarga asarni chuqurroq o'zlashtirish imkonini beradi.

Lirik asarlar tahlilida ham ko'p bosqichli yondashuv o'z samarasini beradi. She'rni o'qishdan so'ng avval umumiy taassurot, keyin obrazlar tizimi, keyin badiiy vositalar, so'ng g'oyaviy mazmun va nihoyat ijodiy munosabat bosqichlari ketma-ket o'tkaziladi. Epik asarlarda esa syujet va qahramonlar tahliliga ko'proq e'tibor qaratiladi. Dramatik asarlarda dialog, konflikt va sahna xususiyatlari alohida o'rganiladi. Har bir adabiy tur o'ziga xos tahlil yo'nalishlarini talab qiladi, ammo umumiy bosqichlar tizimi saqlanib qoladi.

O'quvchilarning tahlil malakasini rivojlantirishda uyga vazifa ham muhim o'rin tutadi. Darsda boshlangan tahlilni uyda davom ettirish, qahramon nomidan xat yozish, asarning muqobil yakunini o'ylab topish, sevimli epizodni chizib kelish kabi topshiriqlar o'quvchini mustaqil ishlashga undaydi. Bu esa darsda olingan bilimlarni mustahkamlashga va ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ko'p bosqichli tahlil metodikasining samaradorligini oshirish uchun o'qituvchi o'z kasbiy mahoratini doimo oshirib borishi lozim. Buning uchun metodik adabiyotlarni o'qish, tajribali o'qituvchilarning darsini kuzatish, o'z darsini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, o'quvchilarning

yozma ishlarini diqqat bilan o'rganib, ularning tahlil darajasini aniqlash va keyingi darslarda shunga mos yondashuvni tanlash kerak.

Badiiy matnni ko'p bosqichli tahlil qilish – bu o'quvchini nafaqat asarni tushunishga, balki uni his etishga, undan zavq olishga va o'z hayotiy tajribasi bilan bog'lashga o'rgatadigan murakkab, ammo samarali jarayondir. Bu metodika adabiy ta'limning zamonaviy talablariga javob beradi va o'quvchida chinakam kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Badiiy matnni ko'p bosqichli tahlil qilish jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot alohida ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi savollar orqali o'quvchini o'ylashga undaydi, lekin tayyor javob bermaydi. O'quvchi esa o'z fikrini asoslashga, matndan dalil keltirishga o'rganadi. Bu jarayon asta-sekin o'quvchida mustaqil tahlil qilish odatini shakllantiradi. Darsda o'qituvchi “Nima deb o'ylaysiz?”, “Buni matndan qanday isbotlaysiz?”, “Boshqa nuqtai nazar bo'lishi mumkinmi?” kabi savollar bilan munozarani rivojlantiradi. Ko'p bosqichli tahlilning samaradorligini oshirishda guruh ishlari ham muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib, biror qahramonni yoki epizodni chuqur tahlil qilishlari, keyin natijalarni sinf oldida taqdim etishlari mumkin. Bu usul hamkorlikda o'rganishni rivojlantiradi, o'quvchilar bir-birining fikrini tinglashga va o'z nuqtai nazarini himoya qilishga o'rganadilar. Guruh ishi paytida o'qituvchi maslahatchi sifatida ishtirok etadi, lekin asosiy ishni o'quvchilar o'zlari bajaradilar.

Lirik asarlarni tahlil qilishda ko'p bosqichli yondashuv o'ziga xos xususiyatlarga ega. She'rni avval ifodali o'qish, keyin umumiy kayfiyatni aniqlash, so'ng obrazlar va badiiy vositalarni tahlil qilish, nihoyat g'oyaviy mazmunni ochish va ijodiy munosabat bildirish ketma-ketligi tavsiya etiladi. Lirik asarda syujet bo'lmagani uchun asosiy e'tibor his-tuyg'u, ohang, ritm va tasviriy vositalarga qaratiladi. Bu jarayon o'quvchining estetik sezgirligini oshiradi va she'riyatni his etishga o'rgatadi. Epik asarlarda esa syujet chizig'i, qahramonlar tizimi, konflikt va kompozitsiya tahliliga ko'proq vaqt ajratiladi. Roman yoki qissa tahlilida o'quvchi voqealar rivojini kuzatadi, qahramonlarning ichki olamini ochishga harakat qiladi, muallif pozitsiyasini aniqlaydi. Dramatik asarlarda dialog, sahna ko'rsatmalari, konflikt va xarakterlar o'rtasidagi ziddiyatlar alohida o'rganiladi. Har bir adabiy tur o'ziga xos tahlil yo'nalishlarini talab qilsa-da, umumiy besh bosqichli tizim saqlanib qoladi va moslashtiriladi. O'quvchilarning tahlil malakasini baholashda ham bosqichli yondashuv qo'llanilishi mumkin. O'qituvchi nafaqat yakuniy insho yoki og'zaki javobni, balki har bir bosqichdagi ishtirokni kuzatadi. Masalan, idrok etish bosqichida o'quvchining taassurot bildirishi, mazmuniy tahlilda dalil keltira olishi, badiiy-estetik tahlilda vositalarni topa bilishi, interpretatsiya bosqichida shaxsiy munosabat bildirishi va ijodiy bosqichda o'z mahsulotini yaratishi alohida baholanadi. Bu yondashuv o'quvchining rivojlanishini aniqroq ko'rsatadi. Ko'p bosqichli tahlil metodikasini tatbiq etishda o'qituvchi oldida turgan qiyinchiliklardan biri – vaqt yetishmasligidir.

Yana bir muhim jihat – o'quvchilarning oldingi bilimlari va tajribasini hisobga olishdir. Har bir o'quvchi asarga o'z hayotiy tajribasi, qiziqishlari va bilim darajasi bilan keladi. O'qituvchi bu xususiyatlarni inobatga olib, savol va topshiriqlarni moslashtirishi lozim. Masalan, ba'zi o'quvchilar uchun qahramonning ichki kechinmalarini tahlil qilish osonroq bo'lsa, boshqalari uchun syujet va konfliktni ochish qulayroqdir. Differensial yondashuv shu yerda o'z ifodasini topadi. Badiiy matnni ko'p bosqichli tahlil qilish nafaqat adabiyot darsi, balki ona tili, tarix, tarbiya darslari bilan bog'liq holda ham amalga oshirilishi mumkin. Fanlararo bog'liqlik o'quvchining bilimlarini mustahkamlaydi va asarni kengroq kontekstda ko'rishga yordam beradi. Masalan, tarixiy asar tahlilida davr muhiti haqida qisqa ma'lumot berish, she'r tahlilida musiqa yoki tasviriy san'at bilan bog'lash o'quvchining tasavvurini boyitadi.

Metodikaning amaliy ahamiyati shundaki, u o'quvchida nafaqat adabiy tahlil malakasini, balki umumiy tanqidiy tafakkurni, muloqot madaniyatini va ijodiy qobiliyatni rivojlantiradi. Bu ko'nikmalar faqat maktabda emas, balki keyingi hayotda ham kerak

bo'ladi. Chunki zamonaviy jamiyatda matn bilan ishlash, uni tahlil qilish va baholash qobiliyati har bir kishi uchun zarurdir, ko'p bosqichli tahlil metodikasi qat'iy qolip emas. O'qituvchi uni o'z tajribasi, sinf xususiyatlari va asarning o'ziga xosligiga qarab ijodiy qo'llashi mumkin.

O'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish ham muhim. Boshlang'ich sinflarda tahlil oddiyroq, o'yin elementlari bilan boyitilgan holda olib boriladi. O'rta sinflarda esa mantiqiy va tanqidiy tahlilga ko'proq e'tibor qaratiladi. Yuqori sinflarda esa interpretatsiya, qiyosiy tahlil va ijodiy ishlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Har bir bosqich yoshga moslashtirilishi kerak, aks holda o'quvchi qiyinchilikka duch keladi yoki qiziqishini yo'qotadi. Badiiy matnni ko'p bosqichli tahlil qilish metodikasi o'quvchida nafaqat adabiy bilimlarni, balki umumbashariy qadriyatlarni ham shakllantiradi. Chunki badiiy asar orqali o'quvchi mehribonlik, adolat, vatanparvarlik, do'stlik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni his etadi va o'zlashtiradi. Tahlil jarayonida bu qadriyatlar ochib beriladi va o'quvchining shaxsiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois adabiy ta'lim tarbiyaviy vazifani ham bajaradi. Yakuniy o'rinda ta'kidlash joizki, ko'p bosqichli tahlil – bu o'quvchini matn bilan “suhbatlashishga” o'rgatadigan, uni faol, mustaqil va ijodiy o'quvchiga aylantiradigan metodik yondashuvdir. U an'anaviy yuzaki tahlildan tubdan farq qiladi va zamonaviy ta'lim talablariga mos keladi. Shu sababli uni adabiyot darslarida keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

Adabiy ta'limda badiiy matnni ko'p bosqichli tahlil qilish metodikasi o'quvchilarning chuqur o'qish, tahlil qilish, interpretatsiya qilish va ijodiy munosabat bildirish ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita ekanligi tasdiqlandi. Taklif etilgan besh bosqichli model – idrok etish, mazmuniy-syujetli tahlil, badiiy-estetik tahlil, g'oyaviy-tematik interpretatsiya va ijodiy-baholash – o'quvchining yoshiga va matn murakkabligiga qarab moslashtirilishi mumkin. Adabiyot darslarida ushbu metodikani muntazam qo'llash tavsiya etiladi. O'qituvchi har bir bosqich uchun aniq savol va topshiriqlar tizimini oldindan rejalashtirishi, o'quvchilarni faol ishtirok etishga undashi lozim. Kelgusida bu yondashuvni raqamli texnologiyalar va interaktiv platformalar bilan boyitish orqali yanada samarali natijalarga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yo'ldoshev Q., Yo'ldoshev M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016. – 464 b.
2. Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2006. – 148 b.
3. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – 256 b.
4. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Shafolat nur fayz, 2020.
5. Safo Matjonov. Kitob o'qishni bilasizmi? – Toshkent: O'qituvchi, 1993. – 108 b.
6. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 42 b.
7. Matchonov S. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 108 b.
8. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008. – 160 b.
9. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X. va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Nosir, 2009. – 351 b.
10. Umurov H. Badiiy ijod asoslari. – Toshkent, 2001.